

## Paskalda shakllar chizish imkoniyatlari

1. Paskal dasturlash tilida grafik holatda chiziq rangini tanlash uchun qaysi protseduradan foydalaniladi?  
Chiziq rangini tanlash uchun **SetColor(rang)**; protsedurasidan foydalaniladi.
2. Paskal dasturlash tilida grafik holatda fon rangini tanlash uchun qaysi protseduradan foydalaniladi?  
Fon rangini tanlash uchun **SetBackColor(rang)**; protsedurasidan foydalaniladi.
3. Paskal dasturlash tilida **Line(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasining vazifasi nima?  
**Line(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi ekranning (X1,Y1) koordinatali nuqtasi bilan (X2,Y2) koordinatali nuqtasini birlashtiruvchi joriy rangli kesma chizadi.
4. Paskal dasturlash tilida **Circle(X,Y,R)** protsedurasining vazifasi nima?  
**Circle(X,Y,R)** protsedurasi markazi (X,Y) nuqtada va radiusi R ga teng aylana chizadi.
5. Paskal dasturlash tilida **Ellipse(X,Y,BB,OB,XR,YR)** protsedurasining vazifasi nima?  
**Ellipse(X,Y,BB,OB,XR,YR)** protsedurasi markazi (X,Y) nuqtada, x va y o'qlari bo'yicha radiuslari mos ravishda XR va YR ga teng ellipsning BB burchagidan OB burchagigacha bo'lgan yoyini chizadi. Burchak gradus o'lchov birligida beriladi.
6. Paskal dasturlash tilida **Rectangle(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasining vazifasi nima?  
**Rectangle(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi ekranda yuqori chap burchagi (X1,Y1) koordinatali va quyi o'ng burchagi (X2,Y2) koordinatali nuqtada bo'lgan to'g'ri to'rtburchak chizadi.
7. Paskal dasturlash tilida **DrawPoly(BS,KM)** protsedurasining vazifasi nima?  
**DrawPoly(BS,KM)** protsedurasi siniq chiziq chizadi. BS - siniq chiziqning sinish nuqtalari soni, KM - siniq chiziq sinish nuqtalarining koordinatalari berilgan massiv nomi.
8. Paskal dasturlash tilida berilgan shakl chegara chiziqlari ichini bo'yash uchun qaysi protseduradan foydalaniladi? **SetFillStyle(usul, rang)**; protsedurasidan.
9. Paskal dasturlash tilida **Bar(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasining vazifasi nima?  
**Bar(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi ekranda yuqori chap burchagi (X1,Y1) va quyi o'ng burchagi (X2,Y2) koordinatali nuqtalarda bo'lgan, ichi joriy rang va usulda bo'yalgan to'g'ri to'rtburchak chizadi.
10. Paskal dasturlash tilida **Bar3D(X1,Y1,X2,Y2,a,b)** protsedurasining vazifasi nima?

**Bar3D(X1,Y1,X2,Y2,a,b)** protsedurasi joriy rang va usulda bo'yalgan parallelepiped chizadi. Bu yerda  $a$  - parallelepiped yon tomonining uzunligi,  $b$  esa mantiqiy ifoda bo'lib, uning qiymati "rost" bo'lsa parallelepipedning yuqori qirrasini chiziladi, "yolg'on" bo'lsa chizilmaydi.

11. *Paskal dasturlash tilida **FillEllipse(X,Y,XR,YR)** protsedurasining vazifasi nima?*

**FillEllipse(X,Y,XR,YR)** protsedurasi markazi  $(X,Y)$  koordinatali nuqtada,  $X$  va  $Y$  o'qlari bo'yicha radiuslari (eni va bo'yi) mos ravishda  $XR$  va  $YR$  ga teng, joriy rang va usulda bo'yalgan ellips chizadi.

12. *Paskal dasturlash tilida **FillPoly(BS,KM)** protsedurasining vazifasi nima?*

**FillPoly(BS,KM)** protsedurasi joriy rang va usulda bo'yalgan ko'pburchak chizadi.  $BS$  - ko'pburchakning burchaklari soni,  $KM$  - ko'pburchak uchlarining koordinatalari berilgan massiv.

13. *Paskal dasturlash tilida **FloodFill(A,B,D)** protsedurasining vazifasi nima?*

**FloodFill(A,B,D)** protsedurasi tanlangan rangni shakl ichiga "quyish" (MS paint dasturidagi kabi) uchun xizmat qiladi, bu yerda  $(A,B)$  shakl ichidagi biror nuqta,  $D$  chegara chizig'i rangi.

14. *Paskal dasturlash tilida **ClearDevice** protsedurasining vazifasi nima?*